Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 902
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

NAMANGAN VILOYATIDAGI TARIXIY-MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZM SALOHIYATI

Bunyodbek Saidaxmad o'g'li Talabjonov*
Farg'ona davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktaranti
✉ talabjonovb@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Namangan viloyatining tarixiy-madaniy meros salohiyati, hududdagi arxeologik yodgorliklarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tabiiy-geografik va tarixiy omillar hamda ularning turizmni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Viloyat hududidagi Axsikent, Axsi, Munchoqtepa, Mug'tepa, Buonamozor, Kayvonot va Eylaton kabi yodgorliklarning tarixiy ahamiyati yoritilib, Axsikentning qadimgi va o'rta asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavqei alohida tadqiq etilgan. Tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida Axsikentda rivojlangan shaharsozlik, mudofaa, hunarmandchilik va suv ta'minoti tizimlari mavjud bo'lganligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ushbu tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ilmiy tadqiq etish va madaniy turizm jarayonlariga keng jalb etishning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar

Namangan viloyati, Axsikent, Axsi, tarixiy-madaniy meros, arxeologik yodgorlik, Buyuk Ipak yo'li, shaharsozlik, hunarmandchilik, madaniy turizm, turizm salohiyati.

DOI: 10.5281/zenodo.21743714

Kirish

Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan Namangan viloyati Markaziy Osiyoning qadimiy tarixiy-geografik va madaniy hududlaridan biri hisoblanadi. Hududning qulay tabiiy sharoiti, suv resurslariga boyligi, sug'orma dehqonchilik uchun imkoniyatlarning mavjudligi hamda Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlarida joylashganligi qadimgi davrlardanoq bu yerda yirik aholi manzillari va shahar markazlarining shakllanishiga zamin yaratgan. Sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo munosabatlarining rivojlanishi natijasida Namangan vohasi Farg'ona vodiysining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan.

Viloyat hududida Axsikent, Axsi, Munchoqtepa, Mug'tepa, Buonamozor, Kayvonot, Eylaton va boshqa ko'plab arxeologik yodgorliklar mavjud bo'lib, ular hudud tarixining turli davrlarini aks ettiradi. Mazkur yodgorliklar orasida Axsikent o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, hududiy ko'lami, arxeologik topilmalari, shaharsozlik an'analari va muhandislik inshootlari bilan alohida ajralib turadi. Qadimgi va o'rta asrlarda siyosiy, harbiy, iqtisodiy hamda madaniy markaz vazifasini bajargan Axsikent bugungi kunda Namangan viloyatining eng muhim tarixiy-madaniy turizm resurslaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Namangan viloyatidagi arxeologik yodgorliklarning tarixiy ahamiyati yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ularning zamonaviy madaniy turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, turizm marshrutlariga integratsiya qilinishi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri kompleks yondashuv asosida yanada chuqur tahlil etilishi zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi Namangan viloyatining tarixiy-madaniy meros salohiyatini yoritish, Axsikent arxeologik yodgorligining tarixiy taraqqiyoti va ilmiy ahamiyatini tahlil qilish hamda undan turizm maqsadlarida foydalanish imkoniyatlarini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun hududning

tarixiy-geografik xususiyatlarini tavsiflash, asosiy arxeologik yodgorliklarni aniqlash, Axsikentning shaharsozlik, mudofaa, hunarmandchilik va muhandislik tizimlarini tahlil qilish hamda yodgorlikning madaniy turizmni rivojlantirishdagi o‘rnini asoslash vazifalari belgilandi.

Namangan viloyati Farg'ona vodiysining qadimiy tarixiy-madaniy markazlaridan biri bo'lib, uning hududida Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining turli bosqichlarini aks ettiruvchi ko'plab arxeologik va me'moriy yodgorliklar joylashgan. Tarixiy manbalarda Axsikent, Koson, Pop, Munchoqtepa, Chodak va Devonbuva majmuasi kabi tarixiy-madaniy obyektlar mintaqaning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgani qayd etilgan. Ayniqsa, Axsikent IX–XII asrlarda Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan biri sifatida shakllanib, rivojlangan shaharsozlik, sug'orish tizimi va hunarmandchilik an'analari bilan ajralib turgan. Mazkur tarixiy meros Namangan viloyatining bugungi turizm salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish va undan turizm maqsadlarida samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Namangan viloyatining boy tarixiy-madaniy merosi bugungi kunda nafaqat tarixiy qadriyat sifatida, balki hududning turizm salohiyatini belgilovchi muhim resurslardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu bobda viloyatdagi moddiy madaniy meros obyektlarining hududiy joylashuvi, ulardan turizm maqsadlarida foydalanish holati hamda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Namangan viloyati Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida, Sirdaryoning o‘ng sohili hamda Chatqol va Farg‘ona tog‘ tizmalari etaklarida joylashgan[2,B.1] bo‘lib, qadimdan Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-geografik hududlaridan biri hisoblanadi.Hududning tabiiy-geografik sharoiti, unumdor vohalari, suv resurslarining mavjudligi va tog‘ hamda tekislik landshaftlarining uyg‘unligi qadimgi davrlardanoq bu yerda o‘troq dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va yirik aholi manzillarining vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysi Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan biri o‘tgan hudud sifatida Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamda madaniy aloqalarda alohida o‘rin tutgan. Shimoliy yo‘nalish Qashg‘ar orqali Farg‘ona vodiysiga kirib, undan Samarqand va Marv tomon davom etgan bo‘lib, voha shaharlarining taraqqiyotiga muhim ta'sir ko‘rsatgan[10,B.95].

Farg‘ona vodiysi Sharq va G‘arbni bog‘lovchi Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan biri sifatida qadimdan xalqaro savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar markazi bo‘lib kelgan. Mazkur yo‘l orqali Xitoy, Sharqiy Turkiston, Movarounnahr va Yaqin Sharq o‘rtasida nafaqat savdo mahsulotlari, balki ilm-fan, hunarmandchilik, diniy qarashlar va madaniy an’analar ham almashib turgan. Namangan viloyati hududidagi qadimiy shaharlar ana shu tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etgan[5, B.58].

Namangan viloyati Farg'ona vodiysining qadimiy tarixiy-madaniy markazlaridan biri bo'lib, uning hududida Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining turli bosqichlarini aks ettiruvchi ko'plab arxeologik va me'moriy yodgorliklar joylashgan. Tarixiy manbalarda Axsikent, Koson, Pop, Munchoqtepa, Chodak va Devonbuva majmuasi kabi tarixiy-madaniy obyektlar mintaqaning tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgani qayd etilgan[1,B. 4]. Mazkur tarixiy meros bugungi kunda Namangan viloyatining turizm salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi

Hududning tabiiy sharoiti qadimgi sug‘orma dehqonchilik tizimining rivojlanishiga ham qulay imkoniyat yaratgan[8,B.10]. Norin va Qoradaryo havzalari[7,B.323],Kosonsoy, Chodaksoy va boshqa daryolar negizida shakllangan irrigatsiya tizimlari vohada dehqonchilikning barqaror rivojlanishini ta’minlagan [9,B.58]. Sug‘orma dehqonchilikning taraqqiy etishi esa aholi zichligining ortishi, yangi shahar va qishloqlarning paydo bo‘lishi hamda hunarmandchilik va savdo markazlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Tarixiy-geografik jihatdan qulay joylashuv, tabiiy resurslarning boyligi hamda qadimgi savdo yo‘llari bilan uzviy bog‘liqlik Namangan viloyatini Farg‘ona vodiysining muhim tarixiy-madaniy hududlaridan biriga aylantirgan. Shu bois bugungi kunda viloyat hududida saqlanib qolgan moddiy madaniy meros obyektlari nafaqat tarixiy manba sifatida, balki madaniy turizmni rivojlantirishning muhim resursi sifatida ham alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Namangan viloyati O‘zbekistonning qadimiy tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo‘lib, turli davrlarga oid ko‘plab arxeologik yodgorliklarga ega. Viloyat hududida To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Axsikent va Axsi, Pop tumanidagi Munchoqtepa, Chust tumanidagi Buonamozor, Kosonsoy tumanidagi Mug‘tepa, Uchqo‘rg‘on

va Norin tumanlaridagi Kayvonot hamda Eylaton yodgorliklari, Chotqol hududidagi qadimiy korizlar tarixiy taraqqiyotning muhim moddiy dalillari hisoblanadi. Mazkur yodgorliklar Farg‘ona vodiysida qadimgi davrlardan boshlab dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharsozlik va savdo munosabatlari rivojlanganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Axsikent yodgorligi o‘zining maydoni, tarixiy ahamiyati va arxeologik topilmalari bilan viloyatdagi eng muhim ilmiy tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi[4,B.36]. Arxeologik va yozma manbalarga ko‘ra, Axsikent miloddan avvalgi III asrda shakllanib, qadimgi Farg‘ona (Davan) davlatining siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lgan. Qadimgi manbalar va arxeologik tadqiqotlar Axsikentning Dovon davlatining yirik siyosiy va harbiy markazlaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi II–I asrlarda Dovon davlati Xitoyning Han sulolasi bilan mashhur ”samoviy tulporlar” uchun kurashlarda ishtirok etgan. Xitoy qo'shinlarining Farg'ona vodiysiga yurishlari Axsikent va uning atrofidagi siyosiy vaziyatga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ushbu voqealar Dovon davlatining harbiy salohiyati va Buyuk Ipak yo'li hududidagi strategik ahamiyatini namoyon etadi. Yuqorida tilga olingan urushdan keyin farg‘onaliklar o‘z poytaxti mudofaasiga katta e’tibor berib, shahar devorlari qalinligini 20 metrga yetkazadilar[5,B.9]. Shuningdek, shahar Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan birida joylashgani sababli Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo aloqalarida muhim o‘rin egallagan. O‘rta asrlarda esa Axsikent Farg‘ona vodiysining eng yirik shaharlari qatoridan joy olib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida rivojlangan. Zahiriddin Muhammad Bobur ham ”Boburnoma”da Axsi haqida ma'lumotlar keltirib, uning Farg‘ona hukmdorlari uchun muhim siyosiy markaz bo‘lganini ta'kidlaydi[11,B.13]. Axsikentni ilmiy o‘rganish XIX asr oxirlarida Turkiston Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilgandan so‘ng boshlandi. 1888-yilda N.I. Vasilevskiy, 1914-yilda esa I.A. Kastanye tomonidan dastlabki arxeologik kuzatuv va qazishmalar amalga oshirildi. XX asrning 70-yillaridan boshlab I. Axrorov, A. Anorboyev hamda Y. Qosimov rahbarligida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Mazkur izlanishlar natijasida Axsikentning shahar tuzilishi, mudofaa tizimi, hunarmandchilik markazlari va muhandislik inshootlariga oid muhim ilmiy ma'lumotlar qo‘lga kiritildi. Qazishmalar natijasida Axsikent shahristoni uch tomondan baland mudofaa devorlari va minoralar bilan o‘ralgani aniqlangan. Janub tomondan esa tabiiy mudofaa vazifasini Sirdaryo bajargan. Sharqiy devorda o‘nta, shimoliy qismida ikkita, g‘arbiy qismida esa uchta minora qoldiqlari saqlanib qolgan. Tadqiqotlar minoralarning xom g‘ishtdan qurilganligini ko‘rsatad[4,B.39]. Shaharning ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat murakkab tuzilishi o‘rta asr shaharsozligining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Arxeologik topilmalar Axsikentning IX–XIII asrlarda Farg‘ona vodiysining yirik iqtisodiy markazi bo‘lganligini tasdiqlaydi. Shahristonda 4–6 xonali turar joylar, omborxonalar, oshxonalar, quduqlar va xo‘jalik inshootlari aniqlangan. Bozor bilan tutashgan zargarlik, misgarlik, temirchilik, kulolchilik va baqqollik mahallalarining mavjudligi shaharda ishlab chiqarish va savdo yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Axsikentda tayyorlangan po‘lat qilichlar Sharq mamlakatlarida ”Damashq qilichlari” nomi bilan mashhur bo‘lganligi uning xalqaro savdo tizimidagi o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Axsikentning eng muhim arxeologik topilmalaridan biri rivojlangan suv ta'minoti tizimidir. Qazishmalar davomida pishiq g‘ishtdan qurilgan yer osti vodoprovodi, sopol quvurlar, suv tindirgich hovuzlar va gumbazsimon texnik xonalar aniqlangan. Mazkur tizim X asr o‘rtalaridan boshlab ikki yarim asrdan ortiq faoliyat ko‘rsatgan. Bundan tashqari, oqova suv va chiqindilarni chiqarishga mo‘ljallangan maxsus inshootlarning mavjudligi shaharda sanitariya va muhandislik madaniyati yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi[11,B.13]. XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar istilosi natijasida qadimgi Axsikent vayron qilingan. Keyinchalik shahar Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, hozirgi Axsi qishlog‘i yaqinida qayta barpo etilgan. XV asrda yangi Axsi Farg‘ona hukmdorlarining siyosiy va ma'muriy markaziga aylangan. Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida quyidagicha yozadi: «Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi. Sayxun daryosi qo‘rg‘onining ostidin oqar. Qo‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘lubtur. Xandaqining o‘rniga amiyq jarlardur. Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir-ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi. Farg‘onada muncha berk qo‘rg‘on yo‘qtur»[3,B.14]. Mazkur ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, Axsi XV asrda nafaqat Farg‘ona hukmdorlarining qarorgohi, balki qulay geografik joylashuvi va mustahkam mudofaa tizimi bilan ajralib turgan strategik ahamiyatga ega shahar bo'lgan. Shundan kelib chiqib, aynan ushbu omillar Axsining uzoq vaqt davomida Farg‘ona vodiysining muhim siyosiy markazi sifatidagi mavqeini saqlab qolishiga xizmat qilgan.

Yuqorida tahlil qilingan tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar Axsikentning

Farg‘ona vodiysi tarixida muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida tutgan o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Yodgorlikning boy moddiy-madaniy merosi, rivojlangan shaharsozlik an'analari va noyob muhandislik inshootlari uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bois Axsikentni muhofaza qilish, ilmiy asosda tadqiq etish va tarixiy-madaniy turizm obyektiga aylantirish bugungi kunda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Namangan viloyatining tarixiy-geografik rivojlanishi hududning qulay tabiiy sharoiti, suv resurslariga boyligi, sug‘orma dehqonchilik imkoniyatlari va qadimgi savdo yo‘llari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ushbu omillar qadimgi davrlardan boshlab vohada yirik aholi manzillari, shahar markazlari, hunarmandchilik va savdo maskanlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Viloyat hududida saqlanib qolgan Axsikent, Axsi, Munchoqtepa, Mug‘tepa, Buonamozor, Kayvonot va Eylaton kabi arxeologik yodgorliklar mazkur tarixiy taraqqiyotning muhim moddiy dalillari hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan tarixiy manbalar, arxeologik ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar Axsikentning Farg‘ona vodiysi tarixida yirik siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy markaz bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shaharning ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat tuzilishi, mustahkam mudofaa devorlari, minoralari, rivojlangan hunarmandchilik mahallalari, bozor infratuzilmasi hamda mukammal suv ta’minoti va oqova tizimlari unda shaharsozlik va muhandislik madaniyati yuqori darajada taraqqiy etganidan dalolat beradi.

Axsikentning Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlaridan birida joylashgani uning xalqaro savdo va madaniy aloqalardagi mavqeini mustahkamlagan. Shahar tarixining qadimgi Dovon davlati, o‘rta asrlar taraqqiyoti hamda Bobur davri bilan bog‘liqligi yodgorlikning turistik jozibadorligini yanada oshiradi. Ayni paytda ushbu tarixiy qatlamlarni ilmiy asosda talqin qilish Axsikentni oddiy arxeologik obyekt sifatida emas, balki Farg‘ona vodiysining ko‘p asrlik siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini namoyish etuvchi majmuaviy turizm maskani sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bois Axsikent va Namangan viloyatidagi boshqa tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, konservatsiya va restavratsiya ishlarini ilmiy mezonlar asosida olib borish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda yodgorliklarni mahalliy va xalqaro turizm marshrutlariga kiritish muhim ahamiyatga ega. Yodgorliklar hududida zamonaviy axborot markazlari, muzey ekspozitsiyalari, elektron xaritalar, virtual rekonstruksiyalar va malakali gidlik xizmatlarini tashkil etish turistlarga tarixiy meros mazmunini yanada to‘liq yetkazishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Namangan viloyatining tarixiy-madaniy merosi hududda madaniy, arxeologik va ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mustahkam resurs bazasini tashkil etadi. Mazkur salohiyatdan oqilona foydalanish tarixiy yodgorliklarning saqlanishini ta’minlash, ularni keng targ‘ib etish, yangi ish o‘rinlari yaratish va hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Arxiv va kartografik manbalar

1. Namangan viloyati Madaniy meros boshqarmasi. Namangan viloyati moddiy madaniy meros obyektlari ro‘yxati. Joriy arxiv ma’lumotlari. – Namangan, 2026.
2. «Kartografiya» ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi. Namangan viloyati: siyosiy-ma’muriy ma’lumotnoma karta. Masshtab 1:200 000. – Toshkent: Yergeodezkadastr davlat qo‘mitasi, 2006.

Tarixiy manbalar

3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.

Ilmiy adabiyotlar

4. Abdullayev O. Namangan viloyati: tabiati, aholisi, xo‘jaligi. – Namangan: Namangan viloyati nashriyot bo‘limi, 1995.
5. Анарбаев А. Древняя Фергана и Великий Шелковый путь // Человеческий капитал. – 2019. – № 2 (122). – С. 58.

6. Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001.
7. Damiani I. Kyrgyzstan–Tajikistan–Uzbekistan: Ferghana Valley // Brunet-Jailly E. (ed.). Encyclopaedia of Border Conflicts. – Los Angeles: ABC-CLIO, 2015. – P. 323.
8. Mamatov Sh. Historical-Topographic Analysis of Population Distribution and Irrigation Systems in the Middle Syr Darya Basin // Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2026. – Vol. 6. – Issue 1. – P. 9–10.
9. Matboboev B. Arxeologiya yodgorliklarining oqar suv manbalari bo‘yicha vohalar kesimida joylashuvi va ularning klassifikatsiyasi (Farg‘ona vodiysi misolida, V–VIII asrlar) // O‘zbekiston arxeologiyasi. – 2023. – № 1 (28). – B. 56–58.
10. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – Toshkent: Noshir, 2010.
11. Юсупов И. Ю., Мирзалиев Э. Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. – Наманган: «Наманган» нашриёти, 2008.